
№4 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL




2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№4 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

LINGVOSEMIOTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Nurmatova Sadbarxon Erkinovna
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvosemiotikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanish jarayoni, uning nazariy asoslari hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Til va belgilar tizimi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi lingvosemiotikaning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy ilmiy g‘oyalar, shuningdek, semiotika va tilshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyasi yoritiladi. Lingvosemiotika taraqqiyotining dastlabki, shakllanish va zamonaviy rivojlanish bosqichlari ilmiy manbalar asosida tavsiflanadi. Shuningdek, lingvosemiotikaning til birliklarida ma’no hosil bo‘lish mexanizmlarini o‘rganishdagi ahamiyati, kommunikativ jarayonlardagi o‘rni hamda zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvosemiotika, semiotika, til belgisi, belgilar tizimi, ma’no, kommunikatsiya, struktura, semiozis, tilshunoslik, lingvistik nazariya.

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИНГВОСЕМИОТИКИ КАК НАУКИ

Аннотация. В данной статье анализируется процесс становления лингвосемиотики как самостоятельного научного направления, её теоретические основы и этапы развития. Рассматриваются основные научные идеи, оказавшие влияние на формирование лингвосемиотики, изучающей взаимосвязь между языком и знаковыми системами, а также интеграция семиотики и лингвистики. На основе научных источников характеризуются первоначальный этап, период становления и современный этап развития лингвосемиотики. Кроме того, раскрываются значение лингвосемиотики в изучении механизмов формирования значения в языковых единицах, её роль в коммуникативных процессах и современные направления исследований.

Ключевые слова: лингвосемиотика, семиотика, языковой знак, знаковая система, значение, коммуникация, структура, семиозис, лингвистика, лингвистическая теория.

STAGES OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF LINGUOSEMIOTICS AS A SCIENCE

Abstract. This article analyzes the formation of linguosemiotics as an independent scientific field, its theoretical foundations, and the stages of its development. It examines the major scientific ideas that influenced the emergence of linguosemiotics, which studies the relationship between language and sign systems, as well as the integration of semiotics and linguistics. Based on scientific sources, the initial, formative, and contemporary stages in the development of linguosemiotics are characterized. In addition, the article highlights the significance of linguosemiotics in studying the mechanisms of meaning formation in linguistic units, its role in communicative processes, and current directions of research.

Keywords: linguosemiotics, semiotics, linguistic sign, sign system, meaning, communication, structure, semiosis, linguistics, linguistic theory.

KIRISH

Semiotika belgilar va belgilar tizimi haqidagi fan sifatida o‘zining tarixiy ildizlari bilan antik Yunoniston falsafasiga borib taqaladi. Biroq uning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur jarayonda ikki fundamental ilmiy yo‘nalish alohida ahamiyat kasb etdi: bir tomondan, amerikalik faylasuf va mantiqshunos Charlz Sanders Pirsning belgilar nazariyasi, ikkinchi tomondan esa shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyurning lingvistik strukturalizmga asoslangan qarashlari. Ushbu ikki ilmiy an’ana semiotikaning keyingi taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab berish bilan birga, lingvosemiotikaning nazariy va metodologik asoslari shakllanishiga ham muhim ta’sir ko‘rsatdi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Pirs (1839–1914) semiotikani mantiq va falsafaning ajralmas qismi sifatida talqin qilgan. Uning triadik belgi modeli — **representamen** (belgining shakli), **obyekt** (belgi ishora qilayotgan narsa yoki hodisa) va **interpretant** (belgining talqin jarayonida hosil bo‘ladigan ma’nosi) — semiotik tahlilning muhim nazariy asoslaridan biriga aylandi. Pirs belgilarni turli mezonlar asosida tasniflagan bo‘lib, ularning obyekt bilan munosabatiga ko‘ra **ikon, indeks va simvol** turlarini ajratgan. Ikonlar obyektga o‘xshashlik asosida ishora qiladi, masalan, portret; indekslar obyekt bilan sababiy yoki bevosita aloqaga asoslanadi, masalan, tutun olovning indeksi sifatida namoyon bo‘ladi; simvollar esa shartli, ya’ni konvensional munosabat asosida amal qiladi. Til birliklari, xususan, so‘zlar simvolik belgilarning tipik ko‘rinishi hisoblanadi.

Ferdinand de Sossyur (1857–1913) esa lingvistik belgini ikki tomonlama birlik — **signifiant** (ifodalovchi, akustik obraz) va **signifié** (ifodalanuvchi, tushuncha) sifatida tavsiflagan. Uning belgining ixtiyoriyligi, ya’ni ifodalovchi bilan

ifodalanuvchi o‘rtasidagi munosabatning shartliligi hamda differensiallik, ya’ni til belgisining boshqa belgilardan farqlanishi orqali qiymat kasb etishi haqidagi tamoyillari zamonaviy tilshunoslik uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Sossyur belgilar hayotini o‘rganuvchi umumiy fanni **semiologiya** deb atagan va tilshunoslikni ushbu kengroq ilmiy sohaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan.

XX asr o‘rtalarida Charlz Morris (1901–1979) Pirsning semiotik qarashlarini yanada rivojlantirib, semiotikaning uch asosiy bo‘limini ajratib ko‘rsatdi: **sintaktika** — belgilar o‘rtasidagi munosabatlarni; **semantika** — belgilar va ular ifodalaydigan obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni; **pragmatika** esa belgilar va ulardan foydalanuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Ushbu uchlik keyinchalik lingvistik va semiotik tahlilning muhim metodologik sxemalaridan biriga aylandi hamda zamonaviy kommunikatsiya tadqiqotlarida ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Yevropa strukturalizmida lingvosemiotikaning rivojlanishiga Kopengagen maktabi vakillari L. Yelmslev va H. Uldall, Praga lingvistik maktabi vakillari N. Trubetskoy va R. Yakobson, shuningdek, Parij semiotika maktabi vakillari A.J. Greimas va R. Bart muhim hissa qo‘shgan. Xususan, Roland Bartning semiotik tadqiqotlari hamda A.J. Greimasning narrativ tuzilmalarni o‘rganishga qaratilgan konsepsiyasi struktural semiotikaning matn tahlili va madaniy semiotika yo‘nalishlarida rivojlanishiga xizmat qildi. Tartu–Moskva semiotika maktabining yirik vakili Yuriy Lotman (1922–1993) esa **semiosfera** konsepsiyasini ilgari surib, madaniyatni o‘zaro aloqador belgilar tizimlarining yaxlit semiotik makoni sifatida talqin etdi.

Italiyalik semiotik Umberto Ekoning (1932–2016) *A Theory of Semiotics* (1976) va *Semiotics and the Philosophy of Language* (1984) asarlari belgi va semiozis muammolarining nazariy jihatdan yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Eko interpretatsiyaning uzluksizligi bilan bog‘liq semiotik jarayonlarni tahlil qilib, kodni madaniy bilim va kompetensiyani tashkil etuvchi muhim mexanizmlardan biri sifatida ko‘rib chiqdi. Uning qarashlari lingvosemiotik tadqiqotlarning pragmatik va kulturologik yo‘nalishlarda kengayishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Lingvosemiotika alohida ilmiy yo‘nalish sifatida til belgilarini faqat til tizimi doirasida emas, balki kommunikativ jarayonlar, kognitiv tuzilmalar va madaniy kontekst bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishga yo‘naltirilgan. Mazkur yo‘nalish, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan kognitiv va pragmatik burilishlar ta’sirida jadal rivojlandi. Hozirgi kunda lingvosemiotika kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, sotsiolingvistika, pragmalingvistika va multimodal kommunikatsiya tadqiqotlari bilan uzviy aloqada taraqqiy etmoqda. Lingvosemiotik muammolarga

bo‘lgan ilmiy qiziqish XX asrning 60–70-yillaridan boshlab semiotika fanining rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yanada kuchaydi.

Lingvosemiotika semiotika doirasida shakllangan ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, tilning belgilar tizimini o‘rganishda semiotik tamoyil va metodlardan foydalanadi. Shu jihatdan semiotikaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish tarixini, uning asosiy tamoyillari hamda tadqiqot metodlarini o‘rganish lingvosemiotikaning nazariy-metodologik asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvosemiotika esa ushbu umumiy nazariy asoslarni bevosita til birliklari, ularning ma’no hosil qilishi va kommunikativ funksiyalarini tadqiq etishga tatbiq etadi.

XX asrda shakllangan kompleks va fanlararo ilmiy yo‘nalishlar qatorida semiotika ham alohida o‘rin egallaydi. Semiotika tabiat, jamiyat va inson kommunikatsiyasida amal qiluvchi belgilar hamda belgilar tizimlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, uning markaziy kategoriyasini **belgi** tushunchasi tashkil etadi.

Semiotikaning zamonaviy nazariy asoslari shakllanishida amerikalik mantiqshunos va faylasuf Charlz Sanders Pirsning ilmiy merosi muhim o‘rin tutadi. Pirs XIX asrning ikkinchi yarmidagi tadqiqotlarida belgining mohiyatini izohlash, uning tarkibiy munosabatlarini aniqlash va belgilarni tasniflashga qaratilgan nazariy tamoyillarni ishlab chiqdi. Uning ikon, indeks va simvol haqidagi tasnifi keyingi semiotik tadqiqotlarning muhim nazariy manbalaridan biriga aylandi.

Pirsning semiotik qarashlari keyinchalik Charlz Morris tomonidan rivojlantirildi. Morris belgilar faoliyatini tizimli o‘rganishga intilib, semiotikaning ichki tuzilishini aniqroq belgilab berdi. U semiotikani uch asosiy yo‘nalishga ajratdi: **sintaktika** belgilar o‘rtasidagi strukturaviy munosabatlarni, **semantika** belgilar va ular ifodalaydigan obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni, **pragmatika** esa belgilar bilan ulardan foydalanuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etadi. Mazkur tasnif semiotika va lingvosemiotikaning keyingi taraqqiyotida muhim metodologik asoslardan biri bo‘lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tasnif ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilib, semiotikaning keyingi nazariy va metodologik rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Semiotikaning fundamental tushunchalarini ishlab chiqishga dastlabki urinishlardan biri nemis mantiqshunosi va faylasufi Gotlob Frege (1848–1925) nomi bilan bog‘liq. U 1892-yilda nashr etilgan mashhur “Ma’no va denotat haqida” asarida nom (belgi), denotat (nom orqali ifodalanadigan predmet) hamda nomning ma’nosi o‘rtasidagi farqni nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Mazkur qarashlar keyinchalik belgi, ma’no va referensiya munosabatlarini o‘rganishda muhim nazariy manbalardan biriga aylandi.

Keyinchalik semiotika shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857–1913) g‘oyalari ta’sirida lingvistik yo‘nalishda rivojlandi. U belgilar tizimini o‘rganuvchi umumiy fan — semiologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Charlz Sanders Pirs semiotikani mantiq va falsafa bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilgan bo‘lsa, Sossyur semiologiyani ijtimoiy hayot doirasida belgilar faoliyatini o‘rganuvchi keng ilmiy yo‘nalish sifatida ko‘rdi. Uning qarashlari tilni yaxlit belgilar tizimi sifatida o‘rganishning metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tabiat va jamiyatdagi axborot-semiotik jarayonlarning xilma-xilligi zamonaviy semiotika doirasida bir qator mustaqil va o‘zaro bog‘liq tadqiqot yo‘nalishlarining shakllanishiga olib keldi.

Biosemiotika tirik organizmlarning hayot faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi tabiiy belgilar, signallar va belgilar tizimlarini o‘rganadi. Ushbu yo‘nalishda tirik tizimlarda axborotning shakllanishi, uzatilishi va qabul qilinishi semiotik nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

Etnosemiotika etnik guruhlar va xalqlarning madaniy hayotida amal qiluvchi belgilar tizimlarini o‘rganadi. Mazkur yo‘nalish antropologiya va etnografiya bilan bog‘liq holda an’anaviy jamiyatlarning belgilar tizimini, ijtimoiy va psixologik yondashuvlar asosida zamonaviy jamiyatlardagi semiotik jarayonlarni, shuningdek, falsafa, tarix va adabiyot bilan aloqador madaniy belgilarni tadqiq etadi.

Lingvosemiotika tabiiy tilni belgilar tizimi sifatida o‘rganib, til birliklarining semiotik tabiati, ularning ma’no hosil qilish mexanizmlari va kommunikativ funksiyalarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, lingvosemiotika nutq bilan parallel ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi imo-ishora va mimika kabi noverbal vositalarni, nutqning ayrim funksiyalarini to‘ldiruvchi yoki almashtiruvchi intonatsion va grafik vositalarni, shuningdek, badiiy nutqda til belgilarining funksional va semantik transformatsiyasini ham o‘rganadi.

Abstrakt semiotika belgilar tizimlarining muayyan moddiy shaklidan qat’i nazar, ularga xos umumiy qonuniyatlar, strukturaviy xususiyatlar va munosabatlarni tadqiq etishga yo‘naltirilgan.

Madaniyat va san’at semiotikasi madaniyat va san’at hodisalarini o‘ziga xos belgilar tizimi sifatida o‘rganadi. Ushbu yondashuv badiiy asarlar, adabiyot, tasviriy san’at, musiqa va boshqa madaniy hodisalarning mazmunini belgi, kod, ramz hamda interpretatsiya kategoriyalari asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shu jihatdan semiotik metodlarning san’at va adabiyot tadqiqotlariga tatbiq etilishi istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Semiotikaning mazkur yo‘nalishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning umumiy nazariy va metodologik masalalari umumiy semiotika doirasida tadqiq etiladi.

Semiotik tadqiqotlarning asosiy obyektini belgilar va belgilar tizimlari, ya’ni muayyan tartib va qonuniyatlar asosida tashkil etilgan belgilar majmui tashkil qiladi. Tabiiy inson tili belgilar tizimlari orasida alohida o‘rin egallaydi. Til insonning voqelikni anglash, tushunchalarni shakllantirish, axborotni kodlash va uzatish jarayonlarida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababli tabiiy tilni semiotik nuqtai nazardan tadqiq etuvchi lingvosemiotika umumiy semiotikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Semiotika — belgilar va belgilar tizimlarining tuzilishi, funksiyasi hamda ulardan axborot almashinuvida foydalanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Axborotni yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlarida belgi eng kichik semiotik birliklardan biri, belgilar tizimi esa axborotni kodlash va tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Semiotika” atamasi ayrim hollarda muayyan belgilar tizimini ifodalash uchun ham qo‘llanadi. Masalan, mif semiotikasi, biologik semiotika, madaniyat semiotikasi kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Muayyan semiotik tizim modellashtiruvchi vosita sifatida faoliyat yuritib, uning yordamida voqelik yoki uning ma’lum bir qismi haqidagi axborot shakllantiriladi. Masalan, yo‘l belgilari, yo‘l chiziqlari, yo‘l harakatini tartibga soluvchi shaxsning ishoralari va svetofor signallari o‘zaro birlashib, yo‘l harakatining yaxlit semiotik tizimini hosil qiladi. Mazkur tizim orqali harakat ishtirokchilariga zarur axborot yetkaziladi hamda xavfsiz harakatlanish uchun muhim bo‘lgan qoidalar kodlashtiriladi.

“Axborot” tushunchasi lotincha *informatio* — “xabardor qilish”, “ma’lumot berish” ma’nolarini anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan. XX asr o‘rtalaridan boshlab mazkur tushuncha umumilmiy kategoriya sifatida keng qo‘llanila boshladi. U insonlar o‘rtasidagi, inson va texnik vositalar o‘rtasidagi, shuningdek, texnik tizimlarning o‘zaro ma’lumot almashinuvi jarayonlarini qamrab oladi. Semiotik nuqtai nazardan muloqot, fikr va his-tuyg‘ularning ifodalanishi hamda turli ramziy-kommunikativ faoliyat shakllari axborot almashinuvining muayyan ko‘rinishlari sifatida talqin qilinishi mumkin.

Insonlarning og‘zaki muloqotida bevosita yetkazilayotgan mazmun bilan bir qatorda, kommunikant tomonidan ongli ravishda rejalashtirilmagan qo‘shimcha axborot ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, suhbatdosh muayyan savolga javob berish jarayonida birdan qizarib ketsa, bu holat mavzuning u uchun emotsional ahamiyatga ega ekanidan darak berishi mumkin. Axborotni ataylab yetkazish maqsadi mavjud bo‘lmagan yoki aniq adresatga yo‘naltirilmagan bunday

ko‘rinishlar **parasemiotik holatlar** sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, diniy marosim, musiqa, tasviriy san’at va boshqa ramziy faoliyat shakllarida ifodalangan mazmun ham semiotik nuqtai nazardan axborot tashuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Insonlar bir-biriga yoki texnik tizimlarga ongli va ayrim hollarda ongsiz tarzda uzatadigan ma’lumotlar axborot jarayonining tarkibiy qismini tashkil etadi. Axborot jarayonlari universal xususiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat inson kommunikatsiyasida, balki tirik tabiatdagi turli signal va aloqa jarayonlarida ham kuzatiladi. Hayvonlarning xavf, tahdid yoki bo‘ysunishni anglatuvchi signallari bunga misol bo‘la oladi.

Biologik tizimlarda axborot almashinuvi molekulyar darajada ham amalga oshadi. Jumladan, irsiy axborot DNK tarkibidagi nukleotidlar ketma-ketligi orqali kodlanadi va avloddan avlodga uzatiladi. Mazkur genetik axborot organizmning tuzilishi, funksional xususiyatlari va individual rivojlanishiga oid biologik dasturlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan axborot tushunchasi semiotika doirasida faqat inson tili va kommunikatsiyasi bilan cheklanmay, turli darajadagi belgilar va signal tizimlarini qamrab oluvchi keng ilmiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Shunday qilib, lingvosemiotikaning shakllanishi va rivojlanishi tilni oddiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki murakkab belgilar tizimi sifatida o‘rganish zarurati bilan bog‘liq. Semiotika doirasida shakllangan belgi, ma’no, semiozis, sintaktika, semantika va pragmatika kabi tushunchalar lingvosemiotik tadqiqotlarning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Ch. Pirs, F. de Sossyur, Ch. Morris va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari belgilar tizimining tuzilishi, ma’no hosil qilishi va kommunikativ jarayonda amal qilish qonuniyatlarini tushuntirishga xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson kommunikatsiyasi faqat ongli ravishda axborot uzatish jarayoni bilan cheklanmaydi. Unda adresantning bevosita kommunikativ niyatiga bog‘liq bo‘lmagan noverbal va parasemiotik belgilar ham muhim o‘rin tutadi. Inson kommunikatsiyasining o‘ziga xos xususiyati metatil refleksiyasi, ya’ni shaxsning o‘z nutqini anglash, nazorat qilish va baholash imkoniyatiga egaligida namoyon bo‘ladi. Tashqi va ichki nutqning o‘zaro aloqasi, predmetli-obrazli hamda metatil kodlarining mavjudligi esa til, tafakkur va axborotni qayta ishlash jarayonlarining uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, lingvosemiotika til birliklarini belgi, ma’no, tafakkur va kommunikatsiya birligida tadqiq etish imkonini beruvchi fanlararo ilmiy yo‘nalishdir. Uning zamonaviy taraqqiyoti til hodisalarini nafaqat strukturaviy

jihatdan, balki kognitiv, pragmatik, kommunikativ va madaniy omillar bilan bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi. Shu sababli lingvosemiotik yondashuv insonning axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va uzatishi, til belgilarining ma’no hosil qilish mexanizmlari hamda kommunikativ jarayonlarning murakkab tabiatini chuqurroq anglashda muhim nazariy va metodologik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Saussure F. de. Course in General Linguistics. – New York: McGraw-Hill, 1966.
2. Peirce C.S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931–1958.
3. Morris C.W. Signs, Language and Behavior. – New York: Prentice-Hall, 1946.
4. Eco U. A Theory of Semiotics. – Bloomington: Indiana University Press, 1976.
5. Lotman Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. – London: I.B. Tauris, 1990.
6. Barthes R. Elements of Semiology. – New York: Hill and Wang, 1968.
7. Greimas A.J. Structural Semantics: An Attempt at a Method. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1983.
8. Sebeok T.A. Signs: An Introduction to Semiotics. – Toronto: University of Toronto Press, 1994.
9. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999.
10. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI Elov Ziyodullo Sattorovich	6
OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	14
MUSTAQILLIKNING 35 YILI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQCHIL-PROFESSIONAL XIZMATNING YANGI BOSQICHI Tursunova Ozoda Abdullayevna	22
ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA YANGI BOSQICH: TA'LIM SIFATI, INNOVATSION YONDASHUVLAR VA DUAL TA'LIM INTEGRATIV MODELI Shermatova Nazokat Safarovna	28
AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI (TALABALAR MISOLIDA) Ramazonov Jahongir Djalolovich	34
O'SPIRINLARDA KIBERBULLINGNING PROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSION IMKONIYATLARI Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	46
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	56
O'SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA SUITSIDAL XULQ MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI Sadilloyev Odiljon Oripovich	63
JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN SHAXSLARGA TA'SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRLAR Manzitov Baxtiyor Tolibovich	72

BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA ZAMONAVIY PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH **Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li**	**79**
TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR **Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**	**91**
O'QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI **Axmedova Gavhar Faxriddinovna**	**101**
QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG'LIQ QO'SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI **Davlatova Saodat Tilovberdiyevna**	**109**
YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI **Qurbonova Manzila.,** **Bobojonov Shavkat**	**120**
BUXORO MODDIY MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISHDA OBIDALARDAGI ASTRONOMIK BELGILARNING O'RNI **Tuksanova Zilola**	**132**
QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ ERTAKLARIDA OBRAZLI NUTQNING MILLIY MODELLARI: FRAZEOLOGIZM, RANG VA MAISHIY TIMSOLLAR **Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna**	**138**
INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI **Koyshekenova Tatyana Kenesarievna**	**144**
LINGVOSEMIOTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI **Nurmatova Sadbarxon Erkinovna**	**151**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/